

QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONALARNI INVESTISION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH

Raxmatov Adham Itolmasovich

Qarshi axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti dotsenti,

Boynazarova Matluba Xatamovna

Qarshi axborot texnologiya va menejmenti universiteti magistranti,

Ismoilov Dilshod Normumin o'g'li

Qarshi axborot texnologiya va menejmenti universiteti magistranti

Annotatsiya: *Investision loyihalarni tahlil qilish va baholash korxonada investision siyosatni to'g'ri shakllantirish va korxonada investision resurslari iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bir necha investision loyihalardan eng istiqbolli va amalda yuqori natija beradigan loyihani tanlash muammosi investision resurslar tanqisligi sharoitida dolzarb masalaga aylandi. Shu nuqtai-nazardan maqolada muallif Qashqadaryo viloyatida korxonalar investision faoliyati samaradorligini tahlil qilgan va baholash uslublarini yoritib bergan.*

Kalit so'zlar: *investitsiya, innovatsiya, korxonada, loyiha, samaradorlik, daromad, baholash, xo'jalik, huquq, foyda, me'yor, diskont, stavka, koeffitsiyent.*

Аннотация: *Анализ и оценка инвестиционных проектов являются одним из основных условий правильного формирования инвестиционной политики предприятия и повышения экономической эффективности его инвестиционных ресурсов. Проблема выбора наиболее перспективного и практически высокоэффективного проекта из нескольких инвестиционных проектов стала актуальной в условиях ограниченности инвестиционных ресурсов. С этой точки зрения в статье автор проанализировал эффективность инвестиционной деятельности предприятий в Кашкадарьинской области и осветил методы их оценки.*

Ключевые слова: *инвестиции, инновации, предприятие, проект, эффективность, доход, оценка, хозяйство, право, прибыль, норма, дисконт, ставка, коэффициент.*

Abstract: *The analysis and evaluation of investment projects is one of the main conditions for properly forming an enterprise's investment policy and increasing the economic efficiency of its investment resources. The problem of selecting the most promising and practically high-performing project from several investment projects has become a pressing issue in conditions of limited investment resources. From this perspective, the author analyzes the efficiency of investment activities of enterprises in the Kashkadarya region and explains evaluation methods.*

Key words: *investment, innovation, enterprise, project, efficiency, income, evaluation, хозяйство (economic activity), law, profit, norm, discount, rate, coefficient.*

Kirish. Ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish korxonalarini tashkil etish va rivojlantirish ehtiyojlari investision loyihalarni yaratishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonasi, boshqa barcha soha va tarmoqlar xo'jalik subyektlari singari, xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish uning strategik maqsadi hisoblanadi. Investision loyihalar ana shu bosh strategik maqsadga erishishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Investision loyihalarni tahlil qilish va baholash korxonada investision siyosatni to'g'ri shakllantirish va korxonada investision resurslari iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bir necha investision loyihalardan eng istiqbolli va amalda yuqori natija beradigan loyihani tanlash muammosi investision resurslar tanqisligi sharoitida dolzarb masalaga aylandi.

Lekin ishlab chiqarish sohasida katta investision resurslarni jalb etish bilan bog'liq yirik investision loyihalar (yangi ishlab chiqarish obyektni qurish, ishlab chiqarish kompleksni rekonstruksiya qilish, tamoman yangi xizmat turlarini joriy etish va boshqalar)ni amalga oshirishda munosabat boshqacha bo'lishi lozim. Ayniqsa, mamlakatda ishlab chiqarishni ustun rivojlantirish va uni milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirish siyosati doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı bunyodkorlik ishlari yirik investision loyihalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Masalan, 2024-2025-yillarda faqat Qarshi shahrida qurish va rekonstruksiya qilish orqali umumiy qiymati 1036181,0 mln. so'mdan, quvvati 9466,0 o'rindan iborat 79 ta loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan².

Tahlil va natijalar. Ishlab chiqarishda investision loyihaning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar ro'yxatiga quyidagilarni kiritishni lozim topdik: investision loyihaning ishlanganlik darajasi; investisiyalarga ehtiyojlarni prognoz baholash; moliyalashtirishning manbalar bo'yicha ta'minlanganligi; risk indikatorı; ishlab chiqarish bozoridagi kamchilikning noaniqligi; inflyasiyaning o'zgarishi; qarzga olinadigan mablag'larning shartlari; loyihani amalga oshirish vaqtini tanlash; taqdim etiladigan xizmatlarning ko'lami; mintaqaviy infratuzilmaning rivojlanishi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, investision loyihani ishlab chiqish jarayonida oldin ishlab chiqarish korxonasi holatining sifati tahlil qilinishi va baholanishi lozim. Yuqorida zikr etilgan barcha omillarning investision jarayon dinamikasiga ta'sir etishini chuqur va har tomonlama tahlil qilish kerak.

Biz taklif qilmoqchi bo'lgan usullar Qashqadaryo viloyati hududida mavjud ishlab chiqarish investision resurslar samaradorligini sof keltirilgan daromad, foyda va o'zini oqlash ko'rsatkichlarini tavsiflovchi miqdorlarini hisoblashga asoslangan. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar oldida turgan eng muhim muammolardan biri – bu investisiyalarning yuqori samaradorligini ta'minlash muammosidir. Investision samaradorlik tegishli investisiya konsepsiyasini ishlab chiqishda ustuvor yo'nalish bo'lishi kerak. Tabiiyki, investisiyalarning yetishmasligi korxonalarni investisiyalar hajmini oshirishga da'vat qiladi, natijada mablag' bilan ta'minlanadigan loyihalar ro'yxatiga kiritish mumkin bo'lgan loyihalar

² Internet ma'lumotlari

sonining ko'payishi yuz beradi, shuning uchun ushbu ro'yxatda samarasi yuqori loyihalar birinchi o'rinda turishi kerak. Buning uchun esa amaliyot investision loyihalar samaradorligini baholashning barcha talablarga javob bera oladigan metodikaga ega bo'lmog'i lozim.

Innovation-investision loyihalar samaradorligini baholash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u quyidagi uch bosqichda amalga oshirilishi kerak:

1. Yillar bo'yicha dastlabki ko'rsatkichlarni hisoblash.
2. Samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash.
3. Innovation-investision loyihalar samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish va baholash.

Investision loyihalar samaradorligini baholashning birinchi bosqichida bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan raqamlar va moliyaviy ma'lumotlarni ishlab chiqarish xo'jalik subyektlarining statistik hisobotlari hamda buxgalteriya balanslari asosida to'ldirish maqsadga muvofiq. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan 3 ta ishlab chiqarish korxonalar misolida innovation loyihalar samaradorligini hisoblash jarayonida foydalanish uchun zarur bo'lgan moliyaviy ma'lumotlar jadvalini tuzdik (1- ilova).

“Qarshi istiqboli” ishlab chiqarish korxonasida loyihaning dastlabki bosqichida moliyaviy qo'yilmalarni asoslab berish uchun samaradorlik ko'rsatkichlarini quyidagi ketma-ketlikda hisoblab chiqdik:

1. Diskontlangan pul oqimlari hajmi va diskontlangan investision qo'yilmalarni hisoblash (1, 2 va 3-jadvallar).

Diskontlash jarayoni – bu kelajakdagi pul tushumlarini joriy qiymatga aylantirishni amalga oshirish. Diskontlash koeffitsiyentini quyidagi 1-formula yordamida hisoblash tavsiya etiladi:

$$a = 1/(1+Ye)^t \quad (1)$$

bu yerda, a – diskontlash koeffitsiyenti; E - diskontlash stavkasi; t - vaqt (yil).

1-jadval

“Qarshi istiqboli” ishlab chiqarish korxonasida diskontlangan pul oqimlari hajmini va investision qo'yilmalarni hisoblash (diskontlash stavkasi 17 %)³

Yillar	Sof pul oqimi, mln. so'm	Investi sion qo'yilmalar, mln. so'm	Diskont lash koeffi siyenti	Diskontlangan pul oqimi* mln. so'm	Diskontlan gan investision qo'yilmalar, mln.so'm
2018	-	174,8	1	-	174,8
2019	24,5	48,0	0,855	20,94	41,04
2020	68,8	47,0	0,731	50,29	34,35
2021	140,0	45,0	0,624	87,36	28,08
2022	128,7	45,0	0,534	68,72	24,03

³ “Qarshi istiqboli”ishlab chiqarish korxonasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan .

TA'LIM, TARBIIYA VA INNOVATSIYALAR

Vol 3. No 1,

2023	155,7	-	0,456	70,99	-
2024	55,5	-	0,390	21,64	-
2025	100,4	-	0,333	33,43	-
Jami	673,6	359,8	-	353,37	302,3

*Diskontlash koeffitsiyenti 1-jadvalning (4 ustunida) 17 foizli diskontlash stavkasi bo'yicha keltirilgan.

Innovasion-investision loyihalar samaradorligini baholashning ikkinchi bosqichida ma'lumotlar asosida tadqiq etilayotgan ishlab chiqarish korxonalarini bo'yicha investision loyihalar iqtisodiy samaradorligini hisoblab chiqdik.

2. Samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblab chiqildi:

1). Sof keltirilgan daromad (NPV) – bu hisobot davrida investisiya xarajatlarining natijalardagi farqi, ya'ni, pul oqimi (natijalari) va investisiya qo'yilmalari (xarajatlari)ni diskontlashni hisobga olgan holda hisoblash.

$$NPV = DCF - DI \quad (2)$$

bu yerda, DCF - diskontlangan pul oqimi; DI - diskontlangan investisiya qo'yilmalari.

$$NPV=353,37-302,3=51,07 \text{ (mln.so'm)}$$

2). Daromadlilik indeksi (PI) – bu keltirilgan daromadlarning shu muddatga keltirilgan innovasion xarajatlarga nisbatidagi munosabatidir. Daromadlilik indeksi investor ushbu loyihani amalga oshirish natijasida investisiya qilgan har bir so'miga qancha daromad olishini ko'rsatadi. Daromadlilik indeksini hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshirilishi kerak:

$$PI = DCF/DI \quad (3)$$

$$PI=353,37/302,3=1,16$$

3). Loyihani qoplash muddati (PP) – loyihani amalga oshirishdan boshlab jami qilingan xarajatlarni qoplangunga qadar minimal vaqt oralig'idagi davr tushuniladi. Qoplash muddati quyidagi formula yordamida aniqlash lozim:

$$PP = DI / DCF_{yil} \quad (4)$$

bu yerda, DCF_{yil} – diskontlangan pul oqimi miqdori o'rtacha yil hisobida.

$$PP = 302,3 / (353,37 / 7) = 5,98 \text{ (yilda)}$$

Hisob-kitoblarimiz natijasidan ko'rinib turibdiki ushbu loyiha

5 yil 9 oy 8 kunda o'zining muddatini qoplaydi.

4). Foydaning *ichki me'yori* (IRR) – bu investisiya loyihasi daromadlilikining ichki darajasi. Ichki daromad darajasi loyihaning NPV qiymati nolga teng bo'lgan chegirma koeffitsiyentining qiymatini anglatadi.

Foydaning *ichki me'yorini* aniqlash uchun K1 va K2 diskontlash stavkasining qiymati tanlanadi va shu vaqt oralig'ida NPV o'z qiymatini ijobiydan salbiyga o'zgartiradi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$IRR = K1 + (NPV1 / (NPV1 - NPV2)) \times (K2 - K1) \quad (5)$$

bu yerda, K – diskontlash stavkasi.

2-jadval

“Qarshi istiqboli” ishlab chiqarish korxonasi diskontlangan pul oqimlari hajmini va investision qo‘yilmalarni hisoblash (diskontlash stavkasi 21%)⁴

Yillar	Sof pul oqimi , mln.so‘m	Investision qo‘yilmalar, mln.so‘m	Diskontlash koeffitsiyenti	Diskontlangan Pul oqimi mln.so‘m	Diskontlangan investision qo‘yilmalar, mln.so‘m
2018	-	174,8	1	-	174,8
2019	24,5	48,0	0,826	20,23	39,64
2020	68,8	47,0	0,683	46,99	32,10
2021	140,0	45,0	0,564	78,96	25,38
2022	128,7	45,0	0,467	60,10	21,01
2023	155,7	-	0,386	60,10	-
2024	55,5	-	0,319	17,60	-
2025	100,4	-	0,263	26,40	-
Jami	673,6	359,8	-	310,38	292,9

“Qarshi istiqboli” ishlab chiqarish korxonasi ma’lumotlari asosida sof keltirilgan daromad (NPV)ni 21 foizli stavka asosida hisoblab chiqdik va quyidagi natijaga erishdik:

$$NPV(21\%) = 310,38 - 292,9 = 17,48 \text{ mln.so‘m}$$

2.9-jadval ma’lumotlariga asosan “Qarshi istiqboli” ishlab chiqarish korxonasi sof keltirilgan daromad (NPV)ni 22 foizli stavka asosida hisoblab chiqdik va quyidagi natijaga erishdik:

$$NPV(22\%) = 300,09 - 290,8 = 9,29 \text{ mln.so‘m}$$

Foydaning *ichki me‘yori* usuli quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$IRR = K1 + (NPV1 / (NPV1 - NPV2)) \times (K1 - K2);$$

$$K1 = 21\%; NPV1 = 17,48;$$

$$K2 = 22\%; NPV2 = 9,29;$$

$$IRR = 0,21 + (17,48 / (17,48 - 9,29)) \times (0,22 - 0,21) = 0,2313 = 23,13\%$$

3-jadval

“Qarshi istiqboli” ishlab chiqarish korxonasi diskontlangan pul oqimlari hajmini va investision qo‘yilmalarni hisoblash (diskontlash stavkasi 22%)⁵

⁴ Muallif tomonidan hisoblangan.

⁵ “Baxtar-V” turistik korxonasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

Vol 3. No 1,

Yillar	Sof pul oqimi, mln.so'm	Investision qo'yilmalar, mln.so'm	Diskontlash koeffitsiyenti	Diskontlangan pul oqimi mln.so'm	Diskontlangan investision qo'yilmalar, mln.so'm
2018	-	174,8	1	-	174,8
2019	24,5	48,0	0,820	20,09	39,36
2020	68,8	47,0	0,672	46,23	31,58
2021	140,0	45,0	0,551	77,14	24,79
2022	128,7	45,0	0,451	58,04	20,29
2023	155,7	-	0,370	57,60	-
2024	55,5	-	0,303	16,81	-
2025	100,4	-	0,249	24,99	-
Jami	673,6	359,8	-	300,09	290,8

Uchinchi bosqich, yuqorida qayd etganimizdek, samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish va investision loyihalar samaradorligini baholashdan iborat. Samaradorlikni baholashning har bir usuli bo'yicha alohida xulosalar keltiramiz.

1) Sof keltirilgan daromad. Ushbu tahlil natijalari loyihamizda NPV jami pul oqimlari jami xarajatlardan yuqoriroq ekanligidan dalolat bermoqda. Tahlillarimiz 17 foizli diskontlash stavkasida $NPV=51,07$ mln. so'mni tashkil etganligini ko'rsatdi. Ushbu loyihada NPV ijobiy bo'lganligi uchun loyihani qabul qilish mumkin. Lekin shunga qaramay, uning qiymati juda ham past va shu sababli korxonaning likvidligi va samaradorligi to'g'risida gapirish qiyin.

2) Daromadlilik indeksini hisoblashda to'lov oqimining ikki qismi taqqoslanadi: foyda va investisiya. PI investor har bir qo'ygan so'miga qancha daromad olishini ko'rsatib beradi. Tahlil qilayotgan loyihamizda $PI=1,16$, ya'ni u 1 dan katta. Bizga ma'lumki $PI>1$ bo'lsa, loyiha samarali hisoblanadi. Demak, loyihani iqtisodiy samarali deb hisoblasak bo'ladi.

3) Loyihani qoplash muddati. Tahlil qilayotgan loyihamizning qoplash muddati 5,98 yilni tashkil etdi. Loyiha 8 yilga mo'ljallangan bo'lib, ikkinchi yildan boshlab o'z samarasini bera boshlaydi. Me'yor bo'yicha qoplash muddati 5 yilga teng. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investision qo'yilmalar risk bilan bog'liq (bozor kon'yukturasi o'zgarishi, narxlarning o'zgarishi). Loyihani qoplash muddati qancha uzoq bo'lsa, risk darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Likvidlik darajasi ham xuddi shunday xususiyatga ega. Ushbu shartlarni bajarishimiz uchun belgilangan qoplash muddati juda uzoq. Innovasion loyihani optimallashtirish uchun quyida keltirilgan chora-tadbirlar orqali ushbu ko'rsatkich muddatini 4,5-5 yilgacha kamaytirishimiz kerak.

4) Foydaning *ichki me'yori*. Loyihaning samaradorligini baholash uchun foydaning *ichki me'yori*ni diskontlash me'yori bilan taqqoslaymiz. Tahlillarimiz natijasi bo'yicha $IRR=23,13$

foizni tashkil qildi, bu esa diskontlash stavkasining 17 foizdan yuqori ekanligini anglatadi. Agar $IRR > 0$ bo'lsa, loyiha samarali hisoblanadi. Demak, biz tahlil qilgan loyiha samarali degan xulosa chiqarish mumkin.

Ishlab chiqarish korxonasi investision loyihasining samaradorligini baholashning ishonchliligini oshirish maqsadida tadqiqot obyekti sifatida tanlangan yana 2 ta xo'jalik subyektlari, ya'ni "Qarshi Brend" hamda "Cho'lquvar" ishlab chiqarish korxonalari bo'yicha yuqoridagi usullarni qo'llash asosida investision loyihalar samaradorligini aniqlab chiqdik va ular bo'yicha kerakli natijalarni oldik.

Shu bilan birgalikda, Qashqadaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan yana ikkita ishlab chiqarish korxonalarining samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish va baholash dissertasiyaning 4-jadvalda, tahlil qilingan uchala ishlab chiqarish korxonalarining natijalari keltirilgan.

4-jadval

Qashqadaryo viloyatidagi ishlab chiqarish korxonalarining samaradorlik ko'rsatkichlari natijalari⁶

№	Ishlab chiqarish korxonalari	Sof keltirilgan daromad (NPV), mln. so'm			Daromadlilik indeksi, (PI)	Loyihani qoplash muddati (PP), yil	Foydaning ichki me'yori (IRR), %
		Diskontlash stavkasi					
		17%	21%	22%			
1	"Qarshi istiqboli"	51,07	17,48	9,29	1,16	5,98	23,13
2	"Qarshi Brend"	33,8	15,0	-7,1	1,11	4,42	21,06
3	"Cho'lquvar"	511,14	199,449	130,249	1,18	5,92	23,88

Tahlil natijasidan ko'rinib turibdiki, 3 ta ishlab chiqarish korxonalar o'rtasida "Cho'lquvar" korxonasining sof keltirilgan daromad ko'rsatkichi hamda 17, 21, 22 foizli stakalarda ham yuqori natijani ko'rsatdi. Olingan natijalar loyihani nafaqat samarali, balki jozibador va investor qaror qabul qilishi uchun aniq natijalarni ko'rsatdi.

Ushbu korxonada daromadlilik indeksi ham, qolgan 2 ta korxonaga nisbatan yuqori. Bizga ma'lumki, $PI > 1$ bo'lganda, loyiha samarali hisoblanadi, shu nuqtai-nazardan ushbu ko'rsatkich bo'yicha ham "Cho'lquvar" korxonasi samaraliroq hisoblanadi. Loyihani qoplash muddati ko'rsatkichi bo'yicha esa "Qarshi Brend" korxonasining natijasi yaxshi. Sababi, yuqorida aytib o'tganimizdek, loyihani qoplash muddati bo'yicha belgilangan me'yor 5 yil. "Qarshi Brend" korxonasining ushbu ko'rsatkich bo'yicha natijasi 4 yil 4 oy va 2 kunni tashkil

⁶ Qashqadaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan uchta ishlab chiqarish korxonalar ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

etmoqda. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha aynan shu loyihamiz samaraliroq hisoblanadi. Foydaning ichki me'yori ko'rsatkichi bo'yicha ham "Qarshi Brend" korxonasi natijasi yuqori. Foydaning ichki me'yori ko'rsatkichi qancha past bo'lsa, loyiha shuncha samaraliroq hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, to'rtta ko'rsatkich bo'yicha yuqoriroq natijaga ega bo'lgan korxonasi "Cho'lquvar" korxonasi hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarish sohasida investitsion jarayonlar umumiy iqtisodiy qonun va qoidalarga bo'ysunadi, lekin ushbu tarmoqni o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etgan holda amalga oshadi. Ishlab chiqarish sohasining investitsion resurslarga bo'lgan ehtiyoji bugungi kunda uning zimmasiga jamiyat, davlat tomonidan yuklatilgan ustuvor vazifalarga mos ravishda juda yuqori. Ushbu dolzarb muammoni hal etishning asosiy yo'llaridan biri – resurslardan innovatsion asosda foydalanish orqali ularning samaradorligini oshirish ekanligi to'g'risida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gitman L Dj., Djonk M.D. Investitsiyalash asoslari. – M.: INFRA-M, 2003.-1008 b.
2. Golubev A.A. Ekonomika i upravleniye innovatsionnoy deyatelnostyu. Ucheb. posobiye. – SPb: NIU ITMO, 2012. – 119 s.
3. Grebennikov, A.I. Leusskiy. – 10-ye izd., pererab. i dop. -M.: Yurayt, 2014.- 684 s.
4. Yevdoviskiy D.A., Babushkin V.A., Baturin N.A. Analiz investitsionnoy privlekatelnosti organizatsii: uchebnik. – M.: KNORUS, 2017. – 374 s.
5. Investitsii. Ucheb. pos. – M.: Ekonomist, 2005. – 478 s.
6. Kashirin A.I., Semenov A.S. Venchurnoye investirovaniye v Rossii. - M.: Vershina, 2007.